



NEMIS TILIDAGI MAQOL VA MATALLARNING O'ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARI VA TARJIMA QILISH USULLARI

M.T.Eshonqulova

Qo'qon davlat pedagogika instituti

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13911601>

ARTICLE INFO

Received: 7th October 2024

Accepted: 9th October 2024

Published: 10th October 2024

KEYWORDS

*Maqol, matal, nemischa,
o'zbekcha, tarjima, badiiy.*

ABSTRACT

Maqolada nemis tilidagi maqol va matallar o'zbek tilida o'xshash yoki bir xil ma'no anglatadigan maqol va matallar bilan qiyosiy o'rganilgan. 2 tildagi tarjimalar va muqobillar berilgan.

Maqol – arabcha so'z bo'lib, aytilgan, qo'llanilgan, ishlatilgan degan ma'nolarni anglatadi. Xalq og'zaki ijodining ko'p janrlaridan, jumladan, maqollarda jamiyatdagi munosabatlarni ya'niy axlaqiy va ruhiy holatlarni o'zida ifodalaydi. Maqollar o'zining tuzilishi jihatidan qisqa, lo'nda, mantiqiy fikran tugallangan bo'ladi. Maqol va matallarda hayotiy tajribalar natijasida kelib chiqqan qimmatli fikrlarning xulosasi ifodalanadi. Ular o'zining ixcham, puxta ishlanganligi bilan har bir xalq ijodining boshqa turlaridan tubdan farq qiladi. Har bir millatning xalq og'zaki ijodi qadimdan yashab va rivojlanib, avloddan – avlodga o'tib kelmoqda.

Turli hil mamlakatlarda yashovchi va turli hil tillarda so'zlashuvchi xalqlarda ma'no jihatidan bir-biriga mos keluvchi turg'un iboralar mavjud.

Jumladan, nemis tili ham maqol va matallar, iboralarga juda boy. Ular insoniy fazilatlarini ulug'laydi, va hayotiy voqealarni o'zida mujasamlashtiradi. "Eng ulug' donolik so'zning soddaligidadir" deb yozadi ulug' yozuvchi M. Gorkiy. Bir tildagi maqollarning ma'nosi boshqa tildagi maqol ma'nosining aksi bo'lishi mumkin. Chunki maqollar asosan, ayrim xalqlarning ichki kechinmalari, urf – odatlari asosida yuzaga kelgan bo'ladi. Bir xil ma'noni ifodalashda ya'ni maqollarni ikki tilda har hil o'hshatishlarda ifodalanadi. Jumladan, nemis tilidagi ayrim maqollarni o'zbek tilidagi muqobillari bilan taxlil qilsak, quydagilarni ko'rishimiz mumkin.

Masalan: Ein Affe bleibt ein Affe, werd er König oder Pfaffe.

Tarjimasi: Maymun qirol bo'lsa ham baribir maymundir.

Muqobili: Oq it, qora it, baribir it.

Masalan: Gesundener Mann, reicher Mann.

Tarjimasi: Sog'lom kishi – boy kishi.

Muqobili: Sog'lig'ing – boyliging.

Masalan: Begrossene Hunde frühten das Wasser.

Tarjimasi: Suvga cho'kkan itning hadigi cho'pdan

Muqobili: Sutdan o'gzi kuygan, qatigni ham puflab ichadi.

Nemis tilidagi maqollar o'zbek xalq maqoliga shaklan emas, balki mazmunan muqobil bo'la olishi mumkin bo'lgan maqollar bor.

Masalan: Adel sitzt im Gemüte, nicht im Geblüte.

Tarjimasi: Oliy janoblik qo'nda emas, qalbdan bo'ladi.

Muqobili: Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l.

Manmanlik boshga balo.

Masalon: Alle Ding wärt seine Zeit.

Tarjimasi: Har narsaning o'z vaqti bor.

Muqobili: Vaqt bilganning baxti bor.

Mazmunan to'la muqobil, shaklan esa qisman o'hshash bo'lgan maqollar mavjud.

Masalan: Blick auf dich, dann richte mich.

Agar ushbu maqolani so'zma – so'z tarjima qiladigan bo'lsak, Avval o'zingni tusat, keyin meni.

Muqobili: Avvalo o'zinga boq, keyin nog'ora qoq.

Professor A. B. Fyodorov "Tarjima nazariyasiga kirish" [5] nomli asarida maqol va matallarni tarjima qilishning quyidagi usullarini ko'rsatadi.

- Maqol va matallarning tarkidagi so'zlarning badiiy ma'nosini saqlagan holda tarjima qilish.

- Asl nusxadan maqol, matal va frazeologik iboralar tarkibidagi so'zlarning badiiy ma'zmunini yoki shaklini birmuncha o'zgartirib tarjima qilish.

- Asil nusxadagi maqol, matal va frazeologik butunliklarni tarjima qilinayotgan tilda xaqiqatdan mavjud bo'lgan muqobili bilan almashtirish.

Yuqoridagi usullardan foydalangan holda ko'plab misollar keltrirish mumkin. **Masalan: Die Fruhte hat Tau sind Augen.**

Tarjimasi: Qo'rquvning ko'zi mingta.

Muqobili: Qo'rqanga qo'sha ko'rinar.

Masalan: Am Nuste kann man sehen, was fürein Vogeldarin wahnt.

Tarjimasi: Qushning qanaqaligi inidan ma'lum.

Muqobili: Qush inida ko'rganini qiladi

Masalan: Alles vergeht, wahrheit besteht.

Tarjimasi: Haq joyini topadi.

Muqobili: Haqiqat egiladi, bukuladi, ammo sinmaydi.

Masalan: Ein gesprochen Wort ist nicht wieder einzuganfen.

Tarjimasi: Aytilgan so'zni qaytarib bolmas.

Muqobili: Aytilgan so'z -otilgan o'q.

Nemis xalq maqol va matallarini tarjima qilish jarayonida maqollarga xos badiiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, ularni she'riy shakilda tarjima qilish mumkin.

Masalan: Borgen macht sorgen.

Tarjimasi: Qarz olmoq baloga qolmoq.

Masalan: Allen Gewalten zum Trotz sich erhalten.

Tarjimasi: Yomonga yo yalin, yo yoril.

Masalan; Dankbarkeit gefallt, Undank hasst die Welt.

Tarjimasi: Yahshi gap jon ozig'i

Yomon gap bosh qozig'i

Bunday she'riy qofiyali maqol tarjimalarini ko'plab keltirish mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, maqol va matallar har ikkala millat vakillarining hikmatli so'zlari, ibora va jumalari jamlanmasidan iborat. Har bir ibratli fikr, maqol, naql, matal o'ziga hos tugal bir asar demakdir. Ularning har biri alohida mitti so'z sa'natiga o'hshaydi. Bunday ihcham iboralar, maqol va matallar turli badiiy asarlarda, lug'atlarda noyob durdonalar singari, ma'lum bir fikrni aniq bir timsollar, obrizlar yordamida ifodalanishi bilan ajralib turadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqol va matallarning ma'nosi va tarjimasi orqali til va o'rganilayotgan mamlakatning madaniyatini, urf- odatlari bilan yaqindan tanishish mumkin.

Adabiyotlar

1. Christa Frey. Annelis Herzog "Deutsch Sprichwörter für Ausländer" Leipzig, 1976 yil.
2. Salomov. G'. "Til va tarjima". O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Fan nashriyoti. Toshkent, 1966 yil.
3. S. Hidayberganov, M, Afzalov, S. Ibragimov. "O'zbek xaqq maqollari". Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1978 yil
4. "Til, tarjima va adabiyot kengliklari". O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent, 2007 yil.
5. Shamsiyeva I. "Yosh avlad ma'naviy rivojiga internetning ta'siri va psixologik xavfsizlik muammosi," Ijtimoiy fikr- inson huquqlari" jurnali №1, 2007, 172- bet

